

# INTERNET TA'SIRIDA YOSHLARNING MA'NAVIY VA RUHIY BARQARORLIGI. KIBERPSIXOLOGIIYA NUQTAYI NAZARIDAN INTERNET MUHITINING YOSHLAR TAFAKKURI VA EMOTSIONAL HOLATIGA TA'SIRI

**Olimova Mushtariy Xaydarali qizi**

*TAFU magistranti*

*e-mail: [Mushtarialimova1@gmail.com](mailto:Mushtarialimova1@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Hozirgi globallashuv deb nomlanayotgan davrda inson ko'proq ijtimoiy tarmoqlarga vaqt sarflashi odat tusiga aylandi Bu bir qaraganda odatiy holatdek tuyulsada aslida juda ham o'ylashga va fikr yuritishimiz kerak bo'lgan holat va muammodir. Ruhshunoslarning ma'lumotlariga qaraganda, yoshlarda buzg'unchi, destruktiv g'oyalarga qarshi mafkuraviy Immunitet to'la shakllanmagani uchun o'qigan yoki ko'rgan ma'lumotlariga tez ishonishadi. Bunday hollarda yoshlarning ma'naviyatiga, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ko'rinib turgan va isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

**Kalit so'zlar:** IG, 2G, 3G, 4G, inson omili, Nimofobiya, Igromaniya, sun'iy olam.

## **KIRISH**

XXI asr raqamli transformatsiya davri bo'lib, yoshlarning ma'naviy barkamolligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy xulq-atvoriga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri — internet muhitidir. Internetning shiddatli rivojlanishi bilan birga, kiberpsixologiya fani ham shakllanib, inson psixikasining virtual makondagi xatti-harakatlari, idrok jarayoni va emotsional o'zgarishlarini ilmiy o'rganadi.

Ijtimoiy tarmoqlar qon qonimizga singib ketganini o'ylagan sari odamni hadik qamrab oladi. Xo'sh biz kimmiz o'zi? va o'zi nima qilyapmiz? va nima uchun yashayapmiz? degan savollarni o'ziga bergisi keladi kishi. Lekin afsus bunday qilolmaymiz chunki bunga bizda vaqt, yo'q, xohish yo'q, intilish yo'q. Nega XXI asrni raqamli texnologiya asri, globallashuv asri deymiz lekin o'zimizni tosh asrida yashagan insonlardek tutamiz?! Yashash uchun emas, yeyish uchun yashaymiz? Vaholanki, tosh asri odamlari ham o'zini oilasini o'zgartirishga intilgan biz esa hatto o'zimizni jazolay olmaymiz nega? Internet bu kim? yoki nima?

Internet katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini bog'lovchi butun jahon kompyuter tizimi. Internet standartlar tizimi hisoblanadi. U o'z faoliyatida o'zini-o'zi rostlab turish, o'zini-o'zi boshqarish falsafasiga rioya qilib faoliyat yuritadi. Hozirgacha uni bosharib turadigan yagona tashkilot. Ha albatta kim bu aslida insonga nisbatan ishlatiladi, lekin 1969-yil 29-oktabr Internetning tug'ulgan kuni va bu kunni nishonlayotganimiz ham rost va bu bizning achchiq haqiqatimiz.

Mazkur maqolada internet ta'sirida qolgan yoshlarning psixologiyasi, insonlarga ta'siri, mumalasi, odobi, xulqi, ruhiy olami tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlarning jamiyatdagi o'rni, internet qay darajada muhimligi psixologik nazariyalar va amaliy kuzatuvlar asosida yoritiladi. Shuningdek, kiberpsixologiya nuqtayi nazaridan ham tadqiqotlar olib boriladi.

## **ASOSIY QISM**

Inson umrini bo'lib chiqsak uxlashdan tortib qachon yuvinishimizgacha olimlar o'rtacha umriga nisbatan bo'lib hisoblab chiqishgan oldinlari bu statistikaga internet kiritilmagan edi endi esa bu kiritilishi aniq va ravshan, chunki inson hozirgi zamondan internetga ketqazadigan vaqti hattoki oila a'zolari, do'stlariga ajratadigan va ketqazadigan vaqtdan hech ham qolishmaydi va bu natija borgan sari oshib bormoqda. Hattoki yangi kasallik Nimofobiya internetsiz qolishdan qo'rqish kasalligi ham paydo bo'ldi. Shu bilan birga ko'pgina yoshlar orasidagi odatlarga hattoki nom ham beriladigan bo'ldi misol uchun: "Igromaniya" bu kompyuterdan o'rin olgan turli xil o'yinlarga

mukkasidan ketishdir. Biz bu dunyodan nomsiz o'tib ketishdan yoki yaqinlarimiz, davlatimizga foydamiz tegmasligidan qo'rqqanimizda edi balki yana ham ko'p o'z ustimizda ishlagan bo'lar edik. O'g'ri deganda bir nimani o'g'irlaydigan qora kiyim kiyib, niqob taqgan beysbol tayoqchasini ko'tarib olgan shaxsni tushunamiz yoki kinolarda ko'rgan katta banklarni, muzeylarni tunaydigan o'g'rilar to'dasini tushunamiz. Lekin XXI asrda shunday o'g'ri dunyoga keldiki uni na qalindevorlar va na kuchli armiya ham to'xtatib qololmaydigan bo'ldi. Albatta bunga o'zimiz sababchimiz. Bu o'g'ri internetdir!!!

Internet o'smirlar, yoshlarni keraklicha tarbiyasiga, ongiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki yoshlar ongida turli yod zaharli ma'lumotlar ham o'rin olmoqda.

Agar unga imkon bersak bizning hayotimizni, umrimizni, umidlarimizni, erkimizni hatto hayollarimizni o'g'irlashi aniq shuning uchun biz ham juda ehtiyotkor va undanda aqilli bo'lishimiz va u bizning umrimizni o'g'irlashiga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Vaqt umr o'g'risi deyishadi u to'xtamaydi tez yoki sekin, ha to'g'ri tushundingiz sekin vaqt har doim ham tez bo'lmaydi uni tez yoki sekin qilish o'zimizga bog'liq shu kungacha bizning umrimiz vaqtga bog'liq edi va endi internet ham bu safga qo'shildi. Hozirda insonlar oddiy ishlarga ham ulgura olishmaydi nega? Ularda diqqat yo'q. Fikr jamlash yo bir joyda o'tirib o'ylab ko'rish yo'q hozir bizni bir joyga o'tirib diqqatimizni fikrimizni bir joyga jamlashga yo'l qo'ymayotgan internet degan o'g'ri bor. Bugungi kunda global internet trafikining bir soniyadagi hajmini 1993-yildagi yillik trafik bilan taqqoslash mumkin. Insoniyat aql-idrokining yanada o'sishi fan va texnikaning rivojlanishi bilan XXI asrga kelib OAV vositalari qatoriga internet kirib keldi. Jahon axborot maydonini qamrab olgan bu aloqa vaositasining ham salbiy ham ijobiy tomoni bor. Uning ijobiy tomoni 3 yoshdan 80yoshgacha bo'lgan insonlar uchun ma'lumot yetkazish va almashish bo'lsa, salbiy tomoni turli buzg'unchi g'oyalar, terrorizm, behayolik, diniy ekstremizm va fundamentalizmni yoyishga xizmat qilmoqda. Buni biz turli reklama, e'lonlar va kichik xabarlar misolida ko'rishimiz mumkin. Dastavval, bizga hech qanday ahamiyatga ega bo'lmasdan ko'ringan kichik ko'ngilsizlik keyinchalik global. muammoga aylanib ulgurmoqda desak adashmagan bo'lamiz.

Bu natijalar asosida psixologik profilaktika va aralashuv choralari ishlab chiqishda emotsional turg'unlikni mustahkamlash, yoshlarni virtual olamdan chiqarib yangiliklarga, bilimga, yaqinlari bilan birga vaqt o'tkazishga undash lozim.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Internet yoshlarning ma'naviy va ruhiy olamiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi global hodisa hisoblanadi. Uning ta'siri ikki tomonlama: ma'naviy-ma'rifiy o'sish, bilim va innovatsiyalar manbai bo'lishi bilan birga, noto'g'ri va nazoratsiz foydalanilganda psixologik muammolar, ma'naviy inqiroz, emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun yoshlar ongini himoya qilish, internetdan ongli va mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish — davr talabidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Ziyodov Q. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Sharq, 2019.
4. Xolmurodova D. "Internet muhitining yoshlar ongiga ta'siri" // Ma'naviyat va ma'rifat jurnali, 2021, №3.
5. Rasulov A. Kiberpsixologiya asoslari. – Toshkent: Innovatsiya zaminlari, 2022.
6. Turdiyeva G. "Virtual kommunikatsiya va yoshlar psixologiyasi" // Psixologiya va zamon, 2020, №2.
7. Shokirov B., Anorqulov A. Axborot xavfsizligi va kiberhimsiz. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. Castells M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society. – Oxford University Press, 2003.